



Received: August 15, 2025
Accepted: September 23, 2025
Available online: September 25, 2025

Bahodir Karimov

Filologiya fanlari doktori, professor
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Bahodir Karimov

Doctor of Sciences in Philology, Professor
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: bahodirkarim66@gmail.com
ORCID iD: 0000-0002-9906-5183

BEHBUDIY – FIKR ISLOHOTCHISI

ANNOTATSIYA

Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining juda ko'p qirralari mavjud bo'lib, mazkur maqolada jadidlarning boshchisi, atoqli adib, publitsist, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy ijodining mumtoz Sharq allomalari, shuningdek, dunyoga mashhur ijod va ilm ahli bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. Behbudiyning taraqqiyot va taraqqiyparvarlar borasidagi fikr-mulohazalari hamda tarixnavislik haqida yozgan maqolalari ham dunyo ilm-fan ahlining tarixiy xizmatlari bilan uyg'un talqin qilinadi. Behbudiyning "Taraqqiy", "Ulfat", "Hurriyat" gazetalarida bosilgan maqolalari atroflicha o'rganilib tahlilga tortilgan. Maqolada, shuningdek, Behbudiyning o'z qarashlarini asoslash uchun ilmiy, tarixiy, tilshunoslik kitoblaridan qator quvvatlovchi fikrlarni keltirganligini, "sart" so'zining mohiyati xususida matbuotda ko'tarilgan bahslarni mashhur olimlarning fikr-mulohazalari bilan hisoblashish orqali taqqoslar bilan mantiqiy xulosa berish kuchli ekani kuzatiladi.

Kalit so'zlar: jadid, maktab, gazeta, adabiyot, maqola, tarbiya, tarix, teatr, jadidlar harakati, isohotchilik, ijtimoiylashuv.

KIRISH

Turkiston jadidlarning boshchisi, atoqli adib, publitsist, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyning tabarruk nomi tilga olinganida beixtiyor tarix tiriladi. Xususan, jadidlar harakati, jadidlarning maktablari, matbuoti, teatri, adabiyoti, jadidlarning ilm-fanga, dinga, dunyoga, umuman, bashariyat hayotining juda ko'p

BEHBUDI – REFORMER OF THOUGHT

ABSTRACT

Mahmudkhoja Behbudi's multifaceted activity encompasses numerous aspects of intellectual and cultural life. This article explores his creative and scholarly contributions as the leader of the Jadid movement, an outstanding writer, publicist, publisher, and educator, while also examining the connections between his ideas and the intellectual heritage of classical Eastern scholars and world-renowned figures of science and literature. Behbudi's reflections on progress and reform, as well as his articles on historiography, are interpreted in relation to the global intellectual tradition and the achievements of leading scholars. A comprehensive analysis is conducted of Behbudi's articles published in the newspapers 'Taraqqiy', 'Ulfat', and 'Hurriyat'. The study also highlights Behbudi's use of supporting evidence drawn from scientific, historical, and linguistic sources to substantiate his views. In particular, his discussions of the term "sart", which sparked debates in the press, demonstrate his ability to critically engage with the opinions of prominent scholars and to formulate well-reasoned, comparative conclusions.

Key words: reformist, school, newspaper, literature, article, education, history, theatre, Jadid movement, reformism, socialization.

jabhalariga munosabatlari tasavvurda jonlanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z shaxsining ijtimoiylashgani, o‘z nafsini yengib, omma manfaati uchun kurash maydoniga otlangani, sayohatlarga chiqib olam kezgani, fikrining kengligi, yangilikka tashnaligi, o‘zi mansub millat va tavallud topgan Vatan sha‘ni yo‘lida beqiyos xizmatlar qilgani, zamonasining islohotchilik yo‘lida ilg‘or ziyolilarini o‘z izidan ergashtirgani, ko‘plab munosib shogirdlar tarbiyalagani, ayniqsa, o‘z millatining dunyodagi boshqa biror qavmdan kam bo‘lmasligini yurak-yurakdan istagani bilan boshqa jadidlar orasida oftobdek porlab ajralib turadi.

ASOSIY QISM

Behbudiyning “Taraqqiy” gazetasida bosilgan “Gazeta nadur?” (1907-yil 11-son) nomli maqolasi bor. Vaqtli matbuot qadr-qiyamatini atroflicha tushuntirgan Behbudiy tarixdan misollar keltiradi. Dunyo ziyo ahli nashr qilayotgan gazeta va jurnallar borasida ma‘lumotlar taqdim etadi. “Bu kun Misr, Istanbul, Hijoz, Quddus mamlakatlarida har xil gazetlardan yuzdan ziyoda chiqar”, Rusiyada chiqarayotgan “har nav jarida va majallalarni adadi bir mingg‘a yetib balki o‘tadur” [Behbudiy, 1907a]. 1905-yildan keyingi ikki yil ichida Rusiya musulmonlari tomonidan o‘ttizdan ortiq gazeta va jurnal chiqarilmoqda ekan. Ayni maqolada Behbudiy sarlavhaga qo‘ygan savolga javob o‘laroq: “Shundayki, jarida o‘yinayi jahonnomadur. Gazet o‘quydurgan kishi dunyodagi barcha xabar va hodisalarni, har toifaning taraqqiy va tanazzuli, uning sabab va illatini o‘z din va millatig‘a qaysi toifa do‘st, qaysi toifa dushmanligini bilur”, deb yozadi. Tabiiyki, bunda gazetani kim chiqarayotgani va jamoaning maslagi ham muhim.

Behbudiy o‘z maqolalarida “taraqqiyparvarlar g‘ofil bo‘lmasun” degan gapni ko‘p takrorlaydi. “Qulil haqqa valav kana murrann” – “Achchiq bo‘lsa ham haqiqatni aytgin”. Ha, haqiqat – achchiq. Hikmatdan murod – tarixga, zamonga, taraqqiyotga tegishli achchiq haqiqatni o‘z o‘rni va o‘z vaqtida aytish lozim.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning Sharq va G‘arb olamidagi allomalar tomonidan yuzaga chiqarilgan, kashf etilgan, ixtiro qilingan narsalar to‘g‘risida “Tarixi ixtiroyi bashar – odamlarning chiqargon nimarsalari” nomli ma‘lumotlarga boy asari bor. To‘g‘risi, bunday ma‘lumotlarni yozish uchun o‘ylash, fikrlash ulkan tarix kitoblarini o‘qish lozim. Behbudiy asari tarkibida o‘zi foydalangan manbalarni, ya‘ni “Tarixi umumiy”, “Tarixi madaniyat”, “Madaniyati islomiya”, “Koinot”, “Tarix va jug‘rofiya lug‘ati”, “Tarixi tamaddun” kabi bir qator kitob va risolalarni nomma-nom sanaydi. “Ko‘rganlarimdan ko‘chirganlarim” degan muhtasham ruknda ommaviy ilmiynamo tadqiqotbozlik hukm surayotgan bugungi kunda Behbudiy ijodi, bayon usuli ayni jihati bilan ham grafomanlarga ibrat, albatta. Behbudiyning niyati xolis, maqsadi aniq: “Tarixdan bexabar ba‘zi kishilar va yoinki dushmanlar musulmonlarni avvaldan oxirgacha nodon, vahshiy ko‘rsaturlar. Musulmonlar dunyog‘a hech nima ixtiro qilmadi, derlarki, ul g‘alatdur va har bir sharaf va hunarmandlikni, bu kungi faranglarga isnod bermoq ham to‘g‘ri emas. Chunki dunyodan o‘tganlar o‘z navbatlarida ishlab, hunar ko‘rsatib o‘tdi va ushbu kungi ixtirolar uchun asbob hozirlab qo‘ydi va hozir faranglar navbatidur” [Karim, 2025]. Oqqan daryolar oqishini yaxshi bilgan Behbudiy charxi kajraftorning bir evrilishidan, taraqqiyotda zamin ahlini ergashtirish navbati

bizga kelishidan umidi etadi. Adib yozadi: “Bir zamon kelurki, navbat boshqalarga tegar, bul dunyoning odatidur”. Taraqqiyot rubi maskunning turli qit'alariga ko'chib turishi tabiiydir. Jadidlarning dunyo va taraqqiy zamon bilan hamnafas bo'lish degan umidli fikri zimmida benihoya ulkan ma'rifiy-ijtimoiy g'oya mujassam. Behbudiy bu yorug' olamda bo'layogan voqea-hodisalardan, yangiliklardan, kashfiyotlardan, nashr bo'layotgan kitoblardan boxabarlikni tashviq qiladi. Buning uchun esa, o'z zamondoshlarini ma'rifatga, ilm olishga, tillarni o'rganishga, ayniqsa, dunyoning to'rt tarafidan beto'xtov kelib turgan gazeta va jurnallarni o'qishga chaqiradi. Zamon bilan hamqadam bo'lish, mutaraqqiy dunyo ahli bilan hamnafas bo'lish yo'lida Behbudiy olimlar bilan yoshlarni, ularning yetuk va tiniq fikrini juda muhim tayanch deb biladi [Karim, 2004; Ahmad, 2024]. Yoshlarni o'qitish kerakligini takror va takror ta'kidlaydi. Yoshlar uchun fikr tarbiyasi muhimligini aslo unutmaydi. Tarixga murojaat qilar ekan, to'g'risi, Behbudiy yozgan asarlari tarkibida kelgan dunyoga mashhur allomalar, shaxsiyatlarning nomlari va ular qoldirgan meros sanog'ining o'ziyoq odamni hayratga soladi. Behbudiy o'z maqola va risolalarida sanagan kitoblarni o'qib, mag'zini chaqib, shimmasini siz-u bizga taqdim etadi. Biz halihanuz Behbudiy taqdim etgan maqolalar, ayrim muhim asarlarni ham oxirigacha o'qiy olganimiz yo'q, tabdil qila olganimiz yo'q. Bir joyda desinish, birovlarning tayyor oshlariga bakovullik, o'rtakashlik, dallollik kuchli bizning “ilm”da. Yangilik, izlanish o'rniga tayyor tabdillardan maqolalar, risolalar, monografiyalar yasash jarayoni shiddatli bizda. Holbuki, Behbudiyning anglash uchun ular o'qigan, biz uchun ma'lumot o'rnida taqdim etgan xorijiy tilda yozilgan kitoblarni tarjima qilib, o'qish lozim. Muhtasham binolarning ildizi mustahkam bo'lishi shart. Kurrayi zamin muvozanatini bir maromda ushlab turgan bahaybat tog'lar – yerga qoqilgan qoziqlarni mushohada etmoq kerak. Demak, osmono'par ma'naviyat ko'shklarini barpo qilishda ularning poydevori yer qa'riga chuqurroq singishi lozim. Bugungi kun tarixi o'tmish ajdodlar yozgan tarixning davomi bo'lishi uchun uzuq-yuluq ma'lumotlar asosida ish yuritish – bu Hindistonga borib filni paypaslagan ko'rlar haqidagi rivoyat zimnidagi haqiqatni esga soladi. Holbuki, bashariyat tarixi yuzlab, minglab jildlarda yozildi. Har millat uni o'ziga moslab, o'z manfaatiga uyg'unlashtirib yozdi. Tarix yozish uchun avval o'sha manbalarni o'qish lozim. O'lis tarixda shu kungacha bo'lgan masofani aynan Vatan va millat manfaati nuqtayi nazaridan behbudiyona usulda tadqiq etish kerak. Behbudiyning olam hodisalariga munosabati zamirida o'rnak bor. Uning do'st bilan dushmani ajrata bilish tamizi orasta. O'z qarashlarini isboti uchun keltirgan dalillari kuchli Behbudiyning. Behbudiyning mezoni – tarozisi toshlarining ichi kovak emas. Shuning uchun ham uning maqolalari tarkibida o'nlab Sharq allomalarining ismlari, asarlarining nomlari keladi. Ayni choqda dunyoga taniqli Arastu, Aflotun, Suqrot singari faylasuflar esga olinadi. Rus tilini mukammal bilgani uchun ruscha kitoblarga, rus olimlari fikrlariga murojaatlar qiladi. Behbudiy hazratning dunyo tamadduni, dunyo olimlari va dunyoga mashhur kitoblar bilan tillashuvida, ogohligida, hayqirig'ida juda katta dard, juda katta orzu va ma'no bor. Bugun tarjimasholshunoslik mashmashalaridan biroz balandlab, Mahmudxo'ja Behbudiy hazrat yozganlarini sinchiklab, hijjalab, so'zma-so'z, satrma-satr o'qish, o'qish va u zoti sharifning qalbini butkul anglash

zamoni keldi.

Biror bahsli masalalar o'rtaga tashlansa, Behbudiy o'z qarashlari isboti uchun ilmiy, tarixiy, tilshunoslik kitoblaridan qator quvvatlovchi fikrlarni keltiradi. Masalan, "sart" so'zining mohiyati xususida matbuotda ko'tarilgan bahslar jarayonida "Sart" so'zi majhuldur" degan maqolasida Ismoilbek Gasprinskiy, Zakiy Validiy kabi maslakdoshlari gaplaridan tashqari, Sherali Lapin fikrlariga, Nikolay Ostroumovning "Sartlar" kitobiga, Geyerning "Turkiston sayohatnomasi"ga, Lagofetning "Buxoro xonlig'i" asariga va hatto Herman Vamberining qarashlarigacha muhokama qilib, oxirida "turk-o'zbek xalqini "sart" demak va yozmak insofsizlik" ekanini qat'iy uqtiradi [Behbudiy, 1915]. Darhaqiqat, Behbudiyning fikrlash tarzida qiyoslar, xususan, o'ziga zamondosh, maslakdosh ziyolilaridan tashqari dunyoga mashhur olimlarning fikr-mulohazalari bilan hisoblashish orqali taqqoslar bilan mantiqiy xulosa berish kuchli ekani kuzatiladi. Gohida kiyim kiyish, musiqa eshitish, o'yin o'ynash yoki she'r yozish masalalarida bahslar o'rtaga chiqqan mahali Behbudiy shariat ilmi bilimdoni sifatida o'z qarashlarini Qur'oni Karim oyatlari, Rasululloh (s.a.v.) hadislariga tayanib berardi. Dalilsiz so'zlamaydi. Bu esa Behbudiy hazratlarining o'zi ilgari surayotgan g'oyalarga, o'z aytgan talab va takliflarga birinchilardan bo'lib o'zi amal qilayotganini ko'rsatadi. Behbudiy islom ahkomlarini ham, dunyoviy ilmni ham juda yaxshi bilar edi. Tarix va geografiya bo'yicha risolalar yozdi. Texnika yangiliklari ham uning nazaridan chetda qolmadi [Mahmud, 2007].

Chorizm istilosi ostidagi holatni mulohaza qilgan Behbudiy yozadi: "Rub'i asrdan beri molan taraqqiy qilduk, kelar zamong'a ma'ni taraqqiy qilarmiz" (TVG 1905). Dunyo ahli orasida fransuzlar, inglizlar, amerikaliklar taraqqiyga erishibdi. "Faqat bir taraqqiy yo'lida necha yuz sanalar mol sarf etmishlar, jon qurbon etmishlar, necha-necha balolarni boshidan kechirmishlar-da, so'ngra shunday maqsadga erishmishlar" ("Ulfat" gazetasi, 1906-yil). Taraqqiyotga faqat orzuning o'zi bilan shunchaki erishib bo'lmaydi. Buning uchun shijoat, sarvat, xizmat, tabir, bilim kerak. Taraqqiyot uchun mol sarf etish, jon fido qilish, balo va ofatlarni yengmoq lozim.

"Islohi tahsil" maqolasida "Har kim o'zi muhokama va qaror qilsun. Bu hol ila sukut qilib tursak, besh, o'n sana so'ngra bundan ham nodon bo'larmiz va boshchisiz qolarmiz. Din va dunyog'a benavo va xor bo'larmiz, oxiratg'a indalloh va inda ar-rasul mas'ul bo'lurmiz. Bas, diniy madrasa va maktablarni isloh etayluk...". Shunday fikrlar davomidan "umumdiniya va adabiyoti arabiyani muntazam tahsil qilmoqqa va ul taraf usul tahsilini bilib kelmak uchun Misrg'a talaba yuborayluk", deb yozadi. Ikkinchidan, zamon ilmlari, iqtisod fani, siyosat yo'rig'i, adabiyot, san'at va "hikmati jadidadan xabardor bo'lmoq uchun" ilg'or maktablarga, xususan, "akmal tahsillari uchun Peterburg'dagi dorulfunun va makotibi oliyag'a talaba yuborayluk", deya tavsiyalar beradi. Shunda tamaddunga erishish, dunyo ahliga o'xshab, taraqqiy qilish mumkin. Shunda o'z millating orasidan hokimlar, tabiblar, olimlar yetishib chiqadi. Shunda yuksalish sarbaland bo'ladi; "ajnabiylarg'a asir va xizmatkor bo'lmoqdin o'zimizni" saqlashimiz imkoniga ega bo'lamiz [Behbudiy, 1907b].

Behbudiy jadidlar rahnamosi sifatida millatni yetaklovchi oydin fikrli ziyolilar oldiga ana shunday juda ulkan islohot rejalarni ko'ndalang qo'yadi. Ba'zan bu

ziddiyatli fikrlar kurashi kechayotgan maydonda yolg'iz ekanini ham sezadi, atrofidagi taraqqiyparvarlarni o'zaro og'ziolachilik, parokandalik va nifoqqa barham berishga chorlaydi; ularni birlikka, birdamlik va xushyorlikka da'vat etadi. Behbudiy hazratning bu gaplari qaysidir jihatdan "O'tkan kunlar" romanidagi Yusufbek hojining: "Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg'an bo'lsa, yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsa o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'ynig'a o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz. O'z naslini o'z qo'li bilan kofir qo'lig'a tutqin qilib topshirquchi – biz ko'r va aqlsiz otalarg'a Xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni to'ng'uzxona qilishig'a hozirlang'an biz itlar yaratguchining qahriga albatta yo'liqarmiz! Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilg'anlari bir o'lkani halokat chuqurig'a qarab sudrag'uchi, albatta, Tangrining qahrig'a sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalar yatimxonalarni vayron qilg'uchi zolimlar – qurtlar va qushlar, yerdan o'sib chiqq'an giyohlar qarg'ishig'a nishonadir, o'g'lim!.." degan alamli gaplarini esga soladi.

Behbudiy qaysi mavzuni yozib muhokama qilishidan qat'i nazar, hamisha taraqqiy va yuksalishdan so'z ochadi; hamisha taraqqiy etgan va yuksalgan dunyo millatlari va mamlakatlariga havaslanib qaraydi. Eng muhimi, taraqqiyot negizi bo'lgan islohotga, bilim olishga, dunyoning rivojlangan mamlakatlari holiga nazar solishga undaydi. Behbudiy bunday o'rinlarda chinakam millat qahramoni, kurashchisi, fidoyisi, jonkuyariga aylanadi. Tasavvur qilish uchun aqalli "Sayohat xotiralari" asarini o'qimoq kerak. Bu asari tafsilotli va ayni damda Behbudiyning ko'ngli "Oyina"da aks etadi. "Sayohat xotiralari" Behbudiyning shaxsi, rutabasi, niyati ulug'ligiga dalolat qiladi [Behbudiy, 2021]. Behbudiyning bilimi, oriyati, yuksak madaniyat sohibi ekani, did-farosati – barcha-barchasi bu xotirada mujassamdir. Nazarimda, nafaqat Behbudiyga zamondosh ziyolilar, balki bugun ham dunyo sayohatiga yo'l olgan kimsa undan o'rganishi, unga ergashishi lozim. Behbudiy doimo band va ma'nan juda baland odam edi. Dunyoning qaysi joyiga bormasin, o'zini Turkistonning chin farzandi, Turkiston ahlini o'z siyosida ramzan tashiyotganini aslo esidan chiqarmagan yuragi butun va botir inson edi.

Behbudiyning "taraqqiyot" konsepsiyasining negizini ilm tashkil etadi. Har qanday millat dunyoda o'z o'rinni ilm bilan topadi. "Padarkush" dramasi asosida ham shu tezis turadi. Dramadagi Ziyoli: "Dunyog'a taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan", deydi.

Behbudiy "Muhtaram samarqandiylarg'a xolisona arz" maqolasini shunday boshlaydi: "Ahli xabarning ma'lumidurkim, eski hukumat zamonida har nimarsa amr va buyruq ila bo'lur edi. Xaloyiqning diniy va milliy ishlarini islohi va rivoji to'g'risida qilaturg'on harakatlarg'a yo'l berilmas edi. Hech nimarsa hukumatdin bejavob va iznsiz qilina olmas edi. Hozirda bo'lsa, Xudoyi taolo bizg'a hurriyat berdi. Diniy va milliy islohot va taraqqiyimiz uchun harakat va sa'y etmoqg'a yo'l ochuqdir..." [Behbudiy, 1917].

XULOSA

Behbudiyning anglamoq uchun unga, uning dardiga, g'amiga, jahdiga, jonfidoligiga, hissiyotiga yaqinroq bormoq kerak. Behbudiy bilan oradagi masofani qisqartirish lozim. Aks holda Behbudiy hazratlari bizga ko'nglini ochmaydi. Behbudiyning anglash uchun chin millatparvar, chin vatanparvar bo'lmoq kerak. Mansabparast, molparast, shuhratparast, minbarparast, unvonparast, obro'parast kimsalar bilan Behbudiyning uyg'onish g'oyasi, islohotchilik qarashlari, muazzam qarashi aslo birlashmaydi. Ko'ngli ochiq odamning yo'li ochiq bo'ladi. Shon-shuhrat, mol-dunyo, mansab-martaba, mukofot kerakmi, marhamat, ular xolis niyatli odamga kutilmagan tomonidan keladi. Ular so'rab, talashib, tilanib olinmaydi. Qozoniladi. Buning uchun mehnat, zahmat, xizmat lozim. Xolisona, Alloh yo'lida ezgu ishlarga bosh-qosh bo'lmoq, iysor lozim. Hayhot, hayhot, Behbudiyning anglamaganlar va angashni xohlamaganlar, o'qimaganlar va o'qishni istamaganlar hali bugun ham mug'ombirona miyig'ida kulib qo'yishadi; ezgu g'oyalarni "avvaldan qolgan asotirlar" deb atashadi. Holbuki, bugun iymon va vijdonga ko'zgu tutadigan zamondir. Holbuki, bugun Behbudiyning anglaydigan va uning borlig'ini har kimga anglatadigan zamondir. Bugun ilm zamoni, Behbudiy xohlagan hurriyat zamoni. Bu kunlar qadriga yetmoq kerak. Dunyo ahli bilan, mutaraqqiy millatlar bilan do'st, inoq, hamkor, hamfikir bo'lmoq kerak. Biz ham aql zahiralarni ishlatadigan zamon muhitida istiqomat qilmoqdamiz. Biz bugun ham qaddimizni tik tutmay, egilib-bukilib kun ko'rar ekanmiz, olam va bashariyat oldida kulgiga qolamiz. Biz bugun o'z hurligimizni, o'z erkimizni, o'z huquqimizni, o'zligimiz va kimligimizni teran anglamas ekanmiz, dunyo ahli oldida masxara bo'lamiz. Zotan, ikki dunyo saodatini qo'lga kiritmoq uchun inson o'laroq, komil inson o'laroq yashamoq kerak. Behbudiy hazratlari o'zlik, uyg'onish, ta'lim va tarbiya, xususan, fikr islohoti xususida ana shunday hayotiy saboqlar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad, S. (2024). *Mahmudxo'ja Behbudiy*. Toshkent: Info Capital Books.
2. Behbudiy, M. (1907a). Gazeta nadur?. "*Taraqqiy*" gazetasi, 11.
3. Behbudiy, M. (1907b). Islohi tahsil. "*Tujjor*" gazetasi, 10.
4. Behbudiy, M. (1915). Sart so'zi majhuldur. "*Oyina*" jurnali, 22.
5. Behbudiy, M. (1917-yil 13-may). Muhtaram samarqandiylarg'a xolisona arz. "*Hurriyat*" gazetasi.
6. Behbudiy, M. (1999). *Tanlangan asarlar* (B.Qosimov (Tuzuv.)). Toshkent: Ma'naviyat.
7. Behbudiy, M. (2021). *Tanlangan asarlar* (S.Ahmad (Tuzuv.), 2 jildlik). Toshkent: Akademnashr.
8. Karim, B. (2004). *Yangilanish sog'inchi*. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti.
9. Karim, B. (2025-yil 27-yanvar). Behbudiy bergan saboqlar. "*Jadid*" gazetasi, 3.
10. Mahmud, V. (2007). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma'naviyat.

REFERENCES

1. Ahmad, S. (2024). *Mahmudkhoja Behbudi*. Tashkent: Info Capital Books.
2. Behbudi, M. (1907a). What is a newspaper?. *Newspaper of 'Taraqqiy'*, 11.
3. Behbudi, M. (1907b). Reform of education. *Newspaper of 'Merchants'*, 10.
4. Behbudi, M. (1915). The word "sart" is obscure. *Journal of 'Oyina'*, 22.
5. Behbudi, M. (1917, May 13). A sincere appeal to the honorable people of Samarkand.

Newspaper of 'Freedom'.

6. Behbudi, M. (1999). *Selected works* (B.Qosimov (Comp.)). Tashkent: Spirituality.
7. Behbudi, M. (2021). *Selected works* (S.Ahmad (Comp.), 2 vols.). Tashkent: Akademnashr.
8. Karim, B. (2004). *Longing for renewal*. Tashkent: Publishing House of the Writers' Union of Uzbekistan 'Literature Fund'.
9. Karim, B. (2025, January 27). Lessons given by Behbudiy. *Newspaper of 'Jadid'*, 3.
10. Mahmud, V. (2007). *Selected works*. Tashkent: 'Spirituality'.